

NAVOIY SIYRATIGA AYLANGAN OLIM
(adabiyotshunos olim R.Vohidov ijodining o'rganilishi)

Saidova Nodira Mustakimovna

Buxoro davlat universiteti Pedagogik ta'lim fakulteti, Boshlang'ich ta'lim
nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Maqola navoiyshunos olim Rahim Vohidovning hayot yo'li, ijodiy merosi va navoiyshunoslik borasida amalga oshirgan ishlariga bag'ishlanadi. Olimning Alisher Navoiy ijodini o'rganish, tadqiq qilish va navoiyshunoslik sohasidagi buyuk xizmatlari alohida e'tirof etiladi. Mumtoz matn tahlilida so'z qo'llash mahorati qayd etiladi.

Kalit so'zlar: Navoiyshunoslik, uslub, talqin, tahlil, tadqiqot, tushunish, sharhlash

Ilm-u urfon bobida shunday buyuk ustozlar borki, ular ustozlik maqomini nafaqat sharaflı kasb, balki o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi hamda kelajakdagi istiqboli yo'lida o'ta mas'uliyatli vazifa deb hisoblaydi. Shu mashaqqatli ilm sarhadlarida "Hayot "deb atalmish ulkan qasrning har qanday sinoatlariga bardosh berib, uning sinovlarida toblanib, ilm-u ma'rifat bobida, halollik shuuri ostida mehnat qiladi. Ayni o'rında jahon pedagoglaridan biri bo'lgan Plutarxning ustoz haqidagi donishmandona bir fikri juda o'rinli: "O'quvchi to'ldirilishi kerak bo'lgan idish emas, balki yo'qish kerak bo'lgan mash'ala." Ya'ni ustoz shogirdini to'g'ri yo'lga yo'naltirib, unga hayot chirog'ini yoritguvchi, uning haqiqiy komil inson sifatida shakllanishida, xuddi mash'aladek yoritguvchi bilimlar bilan qurollantirishi kerakligi aytiladi. Mana shu haqiqatni o'z pedagogik faoliyatining shioriga aylantirgan, ulug' daho Navoiy siymosini ruhan his qilib, buyuk ijodkor asarlari ichida yashab, hatto o'y-xayollari ham haqiqiy ma'noda xazinaga aylangan Ustoz Rahim Jo'rayevich Vohidovdir. Bolalar adabiyotining darg'alaridan sanalgan O. Safarov va H. Safarovalarning ustoz Rahim Vohidovga bag'ishlab "Navoiyga talpingan yurak" nomli kitobida "Hammasi Shayxim Suhayliyning hayoti va ijodini o'rganishdan boshlandi." deya e'tirof etishadi. Nazarimda, Navoiyning sodiq safdoshi va hamisha "yori azizi" deya e'zozlaydigan maslakdosh do'sti Shayxim Suhayliy ijodiy merosini o'rganish birgina bahona bo'ldi, xolos. Bu ilmiy izlanishlar va adabiy aloqalar jilosi Alisher Navoiy ilmiy merosini chuqur

o'rganish, uning asarlari mazmun-mohiyatini yoritib berish, umuman, navoiyshunos olim sifatida faoliyat yuritishga olib keldi.

Haqiqatan ham Navoiy siyrati-yu uning nozik tabiati Ustoz Rahim Vohidovga ko'chgandek edi, go'yo. Navoiy shaxsida ilmga, xalqqa bo'lgan hurmat -e'tibor juda kuchli sanalgan. Ayniqsa, ijodkor o'zining "Vaqfiya" asarida keltirilishicha, otasidan anchagina yer vaqf, ya'ni meros bo'lib qolgan. Ana shu yerlardan tushadigan daromad hisobiga ulug' ijodkor qandaydir hashamat, saroy yoki qasr qurdirmaydi, ya'ni o'z manfaati yo'lida hech qanday mablag' sarf qilmaydi, balki, aksincha, xalq farovonligi, tinchligi yo'lida ko'priklar, yo'llar, masjid-u madrasalar, hammomlar qurib xalqqa in'om etadi. Navoiy shu darajada xalqparvar inson bo'ladiki, o'sha paytda o'z davrining podshosi Husayn Bayqaroga Hirot atrofida yerlarni obod qilish masalasi yuzasidan bir necha bor kirib izn so'raydi. Natijada kambag'al va ishsiz bo'lib qolgan xalq o'z muammolariga yechim topadi. Ulug' Navoiy millatning ilmli bo'lishida eng avval uni oilaviy xotirjamlik bilan ta'minlaydi. Aynan ustoz Rahim Vohidov ham o'zining butun umrini ilmga baxshida etib, hayot darsxonasida, rang-barang kitoblarda o'z halovatini topdi. Hozirda bu kutubxonadan yoshu qari bahramand, shu bilan birga ko'pgina shogirdlarning salohiyatli bo'lishida kamarbasta bo'lib xizmat qildi.

Navoiy ijodi, uning betakror asarlari - ibrat maktabi. Buyuk ijodkorning g'oyat murakkab ibratli hayot yo'li, qoldirgan noyob durdonalari, yaratgan obrazlarini tadqiq va tahlil etishda bir necha ilm ahllarining mehnati singgan. Buyuk daho sanalmish Alisher Navoiy ijodini o'rganish, falsafiy timsollar mazmun-mohiyatini anglashda juda ko'p olimlar – Fitrat, Sadriddin Ayniy, Natan Mallaev, Vohid Zohidov, G'ulom Karimov, Botirxon Valixo'jayev, Abduqodir Hayitmetov, Najmiddin Komilov, Abdurashid Abdug'afforov, Ibrohim Haqqulov singarilar qatori Rahim Vohidovning ham tadqiqotlarini sanab o'tish lozim. Ustoz Rahim Vohidov o'zining mazmunli umri davomida mumtoz adabiyot xazinasidan bebaho boyliklarni tahlil va talqin qilib xalqimizga in'om etdi. Uning navoiyshunoslik sohasida olib borgan ishlari adabiyotshunoslik fanini yuqori bosqichga olib chiqdi. Shu bois ustoz Rahim Vohidovning faoliyati bir qancha adabiyotshunoslarning diqqat markazida bo'ldi. Jumladan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Boturxon Valixo'jaevning "Umidbaxsh odimlar", Abduqodir Hayitmetovning "El ardog'idagi olim", filologiya fanlari doktori, professor N. Komilovning "Ilm navkari" filologiya fanlari doktori, professor O.Safarovning "Yetuk adabiyotshunos (Professor Rahim Jo'ra o'g'li Vohidov ijodiy siymosiga oid

ayrim chizgilar) kabi asarlari shular jumlasidandir. Ustoz Rahim Vohidovga bag'ishlangan mazkur tadqiqotlarda ustozning ham adabiyotshunos olim, ham shaxs sifatidagi turli qirralari ochib berilgan. Rahim Vohidovning navoiyshunoslikka bag'ishlab yozgan ilmiy asarlarini e'tirof etish joiz. "Suhayli" (1978), "XV asrning ikkinchi yarmi - XVI asrning boshlarida o'zbek va tojik she'riyati" (1983), "Majolisun -nafois"ning tarjimalari" (1984), "Sharqning buyuk allomasi" (1989), akademik B.Valixov bilan hamkorlikda tojik tilida "Muhaqqiqi buzurgi du adabiyot" (1978) va o'zbek tilida "Navoiy ijodi - ilhom manbai" (1981), M.Qosimova bilan birga "Alisher Navoiy "Xamsat ul-mutahayyirin" asarining tojikcha tarjimalari" (1990), M.Hoshimova bilan hammualliflikda "Ilhom chashmalari" (1989) va "Adabiy qardoshlik sarhad bilmaydi" (1991), "Alisher Navoiy va ilohiyot" (1994) singari monografiya va risolalari mumtoz adabiyot xazinasidan munosib o'rin egalladi.

Adabiyotshunos olimning ilmiy kuzatishlarida ham mumtoz adabiyot, xususan, Navoiy asarlariga sharh va izohlar berish, badiiy matn tahlili va talqini hodisalari ko'p kuzatiladi. Ulug' shoir asarlarining ilohiy-ironiy manbalarini tadqiq qilishga, shu orqali Alisher Navoiy asarlari mohiyatida jo bo'lgan o'lmas g'oyalarning izohini bugungi kun o'quvchisiga yetkazib berishdek mas'uliyatli vazifani ilmiy faoliyatining mazmuniga aylantirdi.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyot xususan, Alisher Navoiy ijodi injular yashiringan bir dengizki, unga sho'ngigan sari noyob javohirlardan bahramand bo'lasiz. Alisher Navoiy asarlarini o'rganish, uni tadqiq hamda talqin etish bir qancha adabiyotshunos olimlar tomonidan amalga oshirildi. Ustoz Rahim Vohidov ham ana shu an'anani davom ettirib, ularning sodiq izdoshiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O. Safarov , H.Safarova. "Navoiyga talpingan yurak". Buxoro davlat universiteti, 2002 y.
2. R.Vohidov . "Navoiy nomi barhayot" .Toshkent."Fan",1992 y.
3. R. Vohidov. "Yaxshilikka baxshida umr".Toshkent. "Meros ",2001y
4. Saidova, Nodira Mustakimovna. "G'AZAL TAHLILIGA GERMENEVTIK YONDASHUV." Scientific progress 4.2 (2023): 324-327.
5. Mustakimovna, Saidova Nodira. "MATN TAHLILIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING O'RNI." MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 2.18 (2022): 92-96

6. Saidova, Nodira. "Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim va tarbiyaga oid qarashlar." Science and Education 3.2 (2022): 562-567.
7. Nodira, Saidova. "PEOPLE'S ORAL CREATIVITY-INVALUABLE WEALTH." Archive of Conferences. 2021.
8. Nodira, Saidova. "BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TAFAKKURIDA MA'NAVIY- AXLOQIY TARBIYANING O'RNI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI 2.1 (2022): 298-299.
9. Nodira, Saidova. "NAVOIY VA ILOHIYOT MUAMMOSI RAHIM VOHIDOV TALQINIDA." Innovations in Technology and Science Education 2.8 (2023): 681-689.
10. Mustakimovna, Saidova Nodira. "Immanent and contextual text analysis immanent and contextual out-of-class based approach designing literature lessons." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12.4 (2022): 188-192.